


“TASDIQLAYMAN”

Temiryo‘linfratuzilma” AJ Qo‘qon mintaqaviy
temir yo‘l uzeli filiali boshlig‘i

 B.P. Milladjanov
« 11 » fevral 2026 yil

Qo‘qon mintaqaviy temir yo‘l uzeli filialida o‘tkazilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Jinoyatchilik” mavzusida tashkil etilgan profilaktik uchrashuv

BAYONI

11.02.2026yil

Andijon shahar

- Yig‘ilishraisi:** Qo‘qon mintaqaviy temir yo‘l uzeli filiali
boshlig‘i B.P. Milladjanov
- Qatnashdi** Qo‘qon MTU filiali bo‘lim boshliqlari, tizimidagi korxonalar
raxbarlari
- Bayonnoma yozuvchi:** Qo‘qon MTU filiali Korrupsiya va monopoliyaga qarshi
kompleksi nazorati muxandisi D.Q. Yuldashev
- Qatnashdi:** Qo‘qon MTU filiali jami 35- nafar

Kun tartibi:

1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida profilaktik uchrashuv
2. “Qonun buzilishi, uning kelib chiqishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi suhbat
3. “Jinoyatchilik” mavzusida suhbat

Yig‘ilishni Qo‘qon mintaqaviy temir yo‘l uzeli filiali boshlig‘i B.P. Milladjanov o‘z so‘zi bilan ochib yig‘ilish qatnashchilarini kun tartibiga qo‘yilgan asosiy mavzu bilan qisqacha tanishtirib o‘tib.

B.P. Milladjanov o‘z so‘zi davomida, chiqib fuqarolarning xavfsiz manziliga yetib borishi va ularning temir yo‘lga bo‘lgan ishonchining ortishi tomonidan xuquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ishlarning samarali tashkil etilganligini takidlab o‘tdi.

Korrupsiya va monopoliyaga qarshi kompleksi nazorati muxandisi D.Q. Yuldashev o‘z so‘zida, Korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bir bo‘lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurash dunyoning ko‘plab mamlakatlarini qamrab olmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Xozirgi paytda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5618-

sonli, «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni yuzasidan korrupsiyaga qarshi kurashishda aholini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalarda ma'ruzalar o'tkazilib kelinmoqda. Qo'qon mintaqaviy temir yo'l uzeli filialida o'tkazilgan korrupsiya mavzusiga oid konferentsiya, davra suhbatlarida ma'ruzalari raxbar xodimlar va ma'sul xodimlar tomonidan o'tkazib kelinmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining hamda Adliya vazirligini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilishi nazarda tutilgan chora-tadbirlar rejalarining tegishli bandlarini ijrosini ham o'z vaqtida ta'minlab kelmoqda. Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlarga Qo'qon mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali o'z xissasini qo'shib boradi.

Xodimlarni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muxabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoiylilik xissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy taxdidlardan asrash, xodimlarni o'z mutaxassisliklarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, mexnatsevarlik qobiliyatlarini rivojlantirish, inoovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, faol va tashabbuskor yoshlarni taqdirlash bo'yicha doimiy ish olib borilishi zarurligi to'g'risida fikr bildirdi.

Shuningdek, bugungi kunda xodimlarni huquqiy ongini rivojlantirish, muammolarini o'rganish yuzasidan davra suhbatlari o'tkazildi.


Yig'ilish so'ngida ochiq muloqoti tashkil qilindi, Qo'qon MTU filiali bo'lim boshliqlari, tizimidagi korxonalar raxbarlari o'zlarini qiziqtirayotgan savollariga javob olishdi. Kun tartibida ko'tarilgan masalalar bo'yicha o'z fikr muloxozalarini o'rtoqlashdilar.

Yuqoridagi bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib,

Yig'ilish qaror qiladi:

1. Qo'qon mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali tarkibidagi barcha korxonalar va stansiyalarda doimiy profilaktik uchrashuvlar tashkil qilinsin hamda barcha xodimlarini zimmasiga "Jinoyatchilik", "Korrupsiya – qarshi kurashish" mavzusida bo'lib o'tgan suxbat asosida tinglangan ma'lumotlarni korxonalarda xodimlar o'rtasida keng targ'ib qilish vazifalari yuklatilsin.
2. Qo'qon mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali tarkibidagi barcha korxonalar va stansiyalarda Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'yib, ichki nazoratni kuchaytirib, chora-tadbirlar rejasini tuzib, ishchi-xodimlar o'rtasida doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borilsin;
Ishchi-xodimlari ish faoliyatini kuchaytirib, ishni boshlashdan avval o'tiladigan yo'riqnomalarni belgilangan talablar asosida o'tkazilishini ta'minlasin
3. Yig'ilish qarori ijrosini ta'minlash Qo'qon mintaqaviy temir yo'l uzeli filiali Qo'qon MTU filiali Korrupsiya va monopoliyaga qarshi kompleksi nazorati muxandisi D.Q.Yuldashev zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnomayurituvchi



D.Q.Yuldashev